

2-TOM, 6-SON

QASHQADARYO VILOYATINING TIBBIY GEOGRAFIK  
XUSUSIYALARINING AYRIM JIHALARI.

**Do'sbekov Sirojiddin Komiljon o'g'li**

Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: [sirojuja1995@gmail.com](mailto:sirojuja1995@gmail.com) tel: +998 93 351 30 95

**Annotatsiya.** Ma'lumki, aholi salomatligi va kasallanish ko'rsatkichlari hududlarning tabiiy-ekologik, iqtisodiy-ijtimoiy shart-sharoitga, ayniqsa atrof-muhitning ekologik vaziyatiga bog'liq. Ayniqsa, bugungi kunda respublikamizning o'ziga xos geografik tafovutlarga ega viloyatlarida aholi salomatligi bilan bog'liq qator muammolar yuzaga kelmoqdaki ularni ilmiy jihatdan o'rganish va baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** Tibbiyot geografiyasi, aholining ba'zi bir kasalliklar bilan kasallanishi, ekologik vaziyat, inson salomatligi, atrof-muhit, o'lim ko'rsatkichlari.

Ma'lumki hududlarning relyef, landshaft xususiyatlari tibbiy geografik vaziyatga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Bu jihatdan Qashqadaryo viloyati o'ziga xos geografik tafovut kasb etadi. Bu jihatdan viloyat hududini geomorfologik jihatdan uchta asosiy shaklga: tog', tog'oldi va tekislik hududlariga ajratish mumkin. Yer usti tuzilishi o'ziga xos murakkab bo'lib, yarmidan ko'proq qismi tekislik va baland bo'lmagan tepaliklardan iborat. Qarshi cho'li ham aynan mazkur hududda joylashgan. Viloyat shimoli-sharq, sharq va janubi-sharqda tog'liklar bilan o'ralgan bo'lib, bu yerda Zarafshon(Qoratepa va Chaqlikalon tog'lari) va Hisor tizmasi (Beshnov, Sumsar, Shertog', Xontaxti, Eshakmaydon, Maydanak, Toytalash, Chaqchar, Qorasirt va boshqalar), Hisor tog'ini janubiy-sharqda qismidagi (Osmontarash, Ko'ktog', Konsoy, Kaypantog', Torqopchig'ay va h.k.) tog' tizmalari bilan chegaralanadi. Ular o'z navbatida turlicha tabiat landshaftlari o'zida mujassam qiladi. Viloyatning tekislik qismi Qashqadaryo daryosi o'zanining shimoliy qismi Muborak-Azlar tepa ko'tarilmasi, uning janubiy qismi esa Beshkent-Qashqadaryo tog'oldi bukilmisidan iborat.

Aytish o'rinliki, viloyatning Shaxrisabz, Qamashi, Dehqonobod, Kitob va qisman Chiroqchi tumanining shimoliy qismi tog'liklardan iborat. Viloyatning markaziy va g'arbiy qismlari esa pasttekisliklardan tashkil topgan. Yer usti, orografik tuzilishi shimoli-sharq, sharq va janubi-sharqdan g'arb, shimoli-g'arb yo'nalishida pasayib borishi bilan ta'riflanadi [4]. Tekislik qismida Qashqadaryoni o'rta va quyi sohillari, Muborak va Nishon cho'llarida sayyohlikning noan'anaviy yo'nalishlarini tashkil etish imkoniyatlari mavjud. Viloyat



## 2-TOM, 6-SON

hududi respublikamizda neft va tabiiy gaz zahiralarning ko'pligi bo'yicha ham yetakchi o'rinda turadi. Shuningdek, hudud tuz konlari, qurilish materiallari xom ashyosiga juda boy.


Iqlim sharoitlarining shakllanish xususiyatlariga ko'ra, Qashqadaryo viloyati hududi subtropik iqlim guruhiga mansub bo'lib, Turon provinsiyasining alohida Qashqadaryo iqlim okrugi sifatida ajratiladi. Qashqadaryo viloyatining o'ziga xos iqlimiy xususiyatlari uning geografik o'rniga bog'liq. Viloyatda rekreatsiyada eng foydali iqlimiy omillaridan biri quyosh radiatsiyasi miqdori  $6700-7000 \text{ mJ/m}^2$  ni tashkil etadi. Quyoshli kunlar 2600-3000 soatga teng bo'lib, u viloyat hududining deyarli hamma joyida yil davomida musbatdir [5]. Quyoshli kunlarning davomiyligi turistik-ko'ngilochar tadbirlarni o'tkazish imkoniyatlarini belgilaydi va sayyohlarning dam olishini oqilona tashkil etish imkonini beradi. Viloyatning yillik o'rtacha harorati tekislik va tog'oldi rayonlari shimolida  $15^{\circ}\text{C}$  (Kitob), janubda  $16,1^{\circ}\text{C}$  (G'uzor), Qarshi shahrida iyunning o'rtacha harorati  $28,4-29^{\circ}\text{C}$  bo'lsada, ammo kunduz kunlari harorat  $36-37^{\circ}\text{C}$  gacha ko'tariladi. Mutlaq maksimum tog'oldi hududlarida (Kitob, Dehqonobod)  $43^{\circ}\text{C}$ , tekislikda esa  $46-47^{\circ}\text{C}$  gacha (Qarshi, G'uzor) yetadi. Tog'li hududda relyef ta'sirining kattaligidan tekislikka nisbatan ancha salqin va sovuq bo'lmaydiga kunlar o'rta hisobda 226-228 kunga teng va bu turizmni ayrim turlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Insonlar uchun o'rtacha qulay ob-havo sharoitlari quyidagi holatlarda kuzatiladi: havo harorati  $+18 +26^{\circ}\text{C}$ , nisbiy namlik 40-60 foiz, shamol tezligi-0,1-0,2 m/s hisoblanadi. Havoning nisbiy namligi 30-60 foiz bo'lganda odam o'zini yaxshi his etadi. Agar nisbiy namlik 30 foizdan past bo'lsa quruq havo, 71-80 foizdan yuqori bo'lsa juda nam havo hisoblanadi [6]. Viloyatda bunday qulay ob-havo sharoiti bahor oylariga mansub bo'lib, ichki turizm faollashadi, sayyohlikni "pik" davriga to'g'ri keladi. Viloyatda havoning nisbiy namligi yil davomida o'zgarib turadi. Yozda namlik me'yordan ancha past bo'lib, Muborakda iyulda 22 foiz, Qamashida 25 foiz, tog'larga ko'tarilgan sari esa nisbiy namlik miqdori ortib boradi. Qarshi cho'lida qurg'oqchil kunlar ko'p bo'ladi va bu turizmni ayrim turlarini rivojlantirishda noqulay hisoblanadi.

Qashqadaryo viloyati hududida atmosfera yog'inlarining mavsumiy va hududiy taqsimlanishi juda xilma-xil. Tekislikda yillik yog'inlar miqdori 175- 300 mm, o'rtacha baland tog'larda 630-850 mm ni tashkil etadi. Qishki barqaror qor qoplarning mavjud bo'lishi tog' chang'i sporti bilan shug'ullanish ikoniyatini beradi. Viloyatning Kitob, Shahrisabz, Yakkabog', Qamashi va Dehqonobod tumanlaridagi tog'larda qor qalinligi 20-50 sm, baland tog'larda esa doimiy muzliklar va qor qoplamlari vujudga kelgan bo'lib ikki oydan olti oygacha qor qoplami saqlanib turadi. O'rtacha baland va baland tog'li mintaqalarda qishki tog' sport turizm turlarini rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.



## 2-TOM, 6-SON

- Qashqadaryo viloyati respublikamizning yuqori iqtisodiy salohiyatiga ega bo'lgan hududlaridan biri hisoblanadi. Viloyatda yoqilg'i-energetika, tog'-kon sanoati va qishloq xo'jaligi singari tarmoqlar rivojlangan. Viloyatning O'zbekiston yalpi ichki maxsulotidagi salmog'i 5,6 foizni, sanoat maxsulotidagi ulushi 4,1; qishloq xo'jaligi maxsuloti yetishtirishdagi hissasi 9,3 foizni tashkil etadi. Qashqadaryo viloyati doimiy aholisining soni 1-yanvar 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, 3560,6 ming kishini tashkil etgan. Aholi soni bo'yicha O'zbekistonda Samarqand va Farg'ona viloyatlaridan keyingi uchinchi o'rinni egallaydi. Tibbiy geografik xususiyatlariga ko'ra viloyatda ko'pgina kasallik guruhlari, jumladan ovqat hazm qilish, qon aylanish tizimi, qon va qon hosil qiluvchi a'zolari hamda immun tizimi xastaliklari, nafas olish, yuqumli-parazitar kasalliklar salmog'i bo'yicha mamlakatimizda oldingi o'rinlarni egallaydi.



1-rasm. Qashqadaryo viloyati aholisining qon aylanish tizimi a'zolari bilan bog'liq kasalliklar bilan kasallanish darajasi (100 000 ming kishiga nisbatan). Rasm viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi ma'lumotlari[7] asosida mualliflar tomonidan tuzildi.


Ma'lumki, qon aylanish tizimi kasalliklari qatoriga yurak hamda tomirlar bilan bog'liq kasalliklarni kiritish mumkin. Eng xavfli kasalliklar qatoriga yurak-arterial gipertenziya, aritmiya, yurak-ishemik kasalligi, stenokardiya, va hokazolarni kiritish mumkin. Mazkur kasallik bilan bog'liq o'lim va kasalanish holatlar barcha davlatlar va mintaqalarda yetakchi o'rin egallaydi. 2000-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrda Qashqadaryo viloyatining Kitob (5236,8; 10168,3); G'uzor (3991,4; ) 5409,5 singari tumanlarida mazkr kasallik bilan og'riganlar soni sezilarli tazda ortgan (1-rasm).





## 2-TOM, 6-SON

Ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari, paydo bo'lish joyiga ko'ra quyidagicha tasniflanadi: og'iz bo'shlig'i, jag', so'lak bezlari, qizilo'ngach, oshqozon, o'n ikki barmoqli ichak kasalliklari, appendiks, ichak kasalliklari, jigar, oshqozon osti bezi, o't pufagi, o't yo'llari. Ushbu kasalliklarning oldini olish uchun parhez va sog'lom turmush tarzi muhim o'rin egallaydi.



Rasm viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi ma'lumotlari[7] asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

Alohida ta'kidlash lozimki, viloyat aholi orasida ovqat hazm qilish a'zolari bilan kasallanganlar soni bo'yicha respublikadan eng yetakchi hududlaran biridir. So'ngi yigirma yil mobaynida mazur kasallik salmog'i ancha kamaygan bo'lsada ko'rsatkichlar mamlakatda hamon yetakchi o'rinlarni egallaydi.

Xulosa o'rnida viloyatda umumiy aholining kasallanish ko'rsatkichlari Respublikada yetakchi o'rinlarni egallaydi. Jumladan aholining qon aylanish tizimi a'zolari, ovqat hazm qilish a'zolari, nafas olish a'zolari kasalliklari ko'rsatkichlari Respublikaning boshqa viloyatlaridan yuqoriligini ko'rish mumkin. Kasalliklar ko'rsatkichlarining yuqori darajada bo'lishiga asosiy ta'sir etuvchi omillar sirasiga issiq iqlim sharoiti, mahalliy va mintaqaviy ekologik holatning darajasi, aholining ijtimoiy hayot sharoitlari, umumiy ovqatlanish madaniyati va bir qancha omillar muhim ro'l o'ynaydi.



2-TOM, 6-SON

ADABIYOTLAR:

[1] World health statistics 2023: monitoring health for the SDGs, Sustainable Development Goals <file:///C:/Users/User/Downloads/9789240074323-eng.pdf>

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil, 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni. <http://lex.uz/docs/5841063>

[3] Komilova N.K. Inson ekologiyasi va nozogeografik tadqiqotlar. Monografiya. - Toshkent. «Zebo prints», 2023, 208 bet. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari (2000-2022)

[4] Солиев А.С. Ўзбекистон географияси (Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси).-Тошкент: Университет, 2014.-404 б.

[5] Баратов А. Ўзбекистон табиий географияси. Т. 1996, “Ўқитувчи”, 272 бет.

[6] Зокиров Ф.З., Рахмонов К.Р. Ўзбекистоннинг шифобахш масканлари. Т. 1991. 120 б.

[7] Qashqadaryo viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi ma’lumotlari

